

## **O‘RTACHO‘L VOHA LANDSHAFTLARI VA ULARNI**

### **OQILONA TASHKIL QILISH**

**Mirzoyeva Istat Elmurodovna**

**(Buxoro davlat universiteti, O‘zbekiston)**

**Yusupova Zarina Baxtiyor qizi**

**(Geografiya ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘rtacho‘l hududining tarixiy rivojlanishi, voha landshaftlari, hamda ularni oqilona tashkil qilishga oid ma‘lumotlar batafsil yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** landshaft, neolit davri, buta va yarim buta o‘simliklar, voha, cho‘l saksovul, juzg‘un, shuvoq, Koriz, Shoyiqozoq, Quyumlik, Shoydaroz, Yangiquduq, Tandircha, Shoyixatip, Taniqli, Beshtepa.

O‘rta Osiyo insoniyat olamida juda qadimdan madaniyat rivojlangan, tarixi boy mintaqalardan biri. Bu muqaddas zaminda odamning ilk ajdodlarini faoliyatidan guvohlik beruvchi ko‘plab ashyoviy dalillar topilgan.

Qiziltepa tumani va uning atroflarini arxeologik jihatdan tekshirish tarixi to‘g‘risida akademik U.A.Shishkinning “Varaxsha” (Moskva, 1963 yil) kitobida talaygina dalillar berilgan. 1934 yilda Buxoro vohasini tekshirish uchun A.U.Yakubovskiy boshchiligidagi olimlar guruhi ish boshladi. Bu guruh Buxoro shahridan Samarqand shahrigacha bo‘lgan joylarda tekshirish ishlarini olib borishi mo‘ljallangan edi. Olimlar belgilangan joylarda arxeologik qazilmalar o‘tkazib, odamlar yashagan makonlarni topdilar.

Olimlarning tekshirishlari shuni ko‘rsatdiki, ibtidoiy ajdodlarimiz dastlab tabiatning tayyor noz-ne‘matlarini iste‘mol qilib kun kechirganlar. Keyinroq mol boqib kun kechirganlar. Keyinchalik tabiat sirlarini o‘rganishi tufayli bir vaqtda chorvachilik va dehqonchilikni kashf etganlar. Bu kashfiyot odamzotni tabiat qulligidan abadiy ozod qildi. Bu voqealar ibtidoiy jamoa tuzumining neolit (Yangi tosh davri)da sodir bo‘ldi. Mana shunday yirik o‘zgarishlar O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida miloddan avvalgi V ming yillikda turli xil millatlar, markaziy va

shimoliy tumanda esa miloddan avvalgi III ming yillikda (Kaltaminor madaniyati) davrida paydo bo'ldi. Dehqonchilik xo'jaligi o'z navbatida hunarmandchilik, shuningdek qator sohalarni rivojlantirishga zamin yaratdi va ular asosida qadimgi sharq sivilizatsiyasining mintaqalari qaror topdi. Janubiy O'zbekistonda olib borilgan arxeologik ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida bu o'lkalarda qadimgi sharq madaniyati o'zining chuqur mahalliy ildiziga ega ekanligi isbotlandi.

Akademik Abdulahat Muhammadjonov o'zining «Qadimgi Buxoro» (Toshkent, 1991 yil, «Fan» nashriyoti) kitobida shunday yozadi:

«Miloddan avvalgi II ming yillikning oxirlarida va I ming yillikning boshlarida O'rta Osiyoning dashtlik yerlarida yashayotgan aholi hayotida sodir bo'lganidek, Zarafshon vodiysining quyi qismidagi qabilalarning chorvachilik xo'jaligida ham tez sur'atlar bilan rivojlanish jarayoni kuzatiladi» («Qadimgi Buxoro», 30-bet).

O'rta Osiyo xalqlari ham o'zlarining ko'p asrlik murakkab tarixida butun jahon xalqlari boshidan kechirgan jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishining asosiy yo'llarini bosib o'tadilar. Uning taraqqiyoti yo'llarida sodir bo'lgan bosqinchilik urushlari, qirg'inlar va boshqa yovuzliklar mehnatkash xalq irodasini sindira olmadi.

O'rtacho'l to'g'risida garchand alohida tarixiy yozma manbaga ega bo'lmasakda, biz bu daha tarixini Qiziltepaning boshqa hududlari to'g'risidagi tarixini dalillarni solishtirish orqali o'rganamiz. 1955-1957 yillarda akademik Yahyo G'ulomov boshchiligidagi arxeologik tekshirish guruhi Quyimozor qo'rg'onida tekshirish ishlari olib borgan olimlar bu yerdagi bir qancha qabrlarni ochib tekshirdi. Mana shu ma'lumotlarni taqqoslab ko'rsak, O'rtacho'l dahasiga ham to'g'ri keladi.

Akademik Yahyo G'ulomov boshchiligidagi arxeologik tekshirish guruhi Ayronchi qishlog'ining janubidagi davandog', uning atrofidan ham juda ko'p sopol buyumlar dehqonchilik asbob-uskunalari topilgan, Ayronchi va O'rtacho'l hududlari bir-biridan uncha olib bo'lmaganligini hisobga olsak, O'rtacho'l dahasida ham uzoq o'tmishda odam yashaganligiga ishora qilishimiz mumkin. Ayronchi biror urug'ning nomi bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelganlar. Shuningdek, Quyimozorning

sharqidagi tepaliklarda temirdan yasalgan buyumlar, qilich, xanjar, yoy o'qining uchlari topilgan. Bular olimlarning taxminlariga ko'ra, eramizdan avvalgi I asrning yoki eramizning I asriga to'g'ri keladi.

Olib borilgan arxeologik tekshirishlar kishilik tariximizning hamma bosqichlarida: paleolit (qadimgi tosh asri) bo'lgan davrlarga oid ko'plab yodgorliklar borligini aniqlaydi.

1956–1965 yillarda K.Hamroev tomonidan Qiziltepa, Quyimozor, O'rtacho'l, Hazora atroflarida miloddan avvalgi VI-IV asrlarga, eramizning III – V asrlariga oid juda ko'p joylar, ya'ni eski xarobalar, kabristonlar, kurgonlar, suv yo'llari, tepaliklar tekshirildi. Shuningdek, Buxoro viloyatiga tegishli bo'lgan O'rtacho'l yaylovlari, quduqlar, o'tloqlar, olimlar tomonidan tekshirilib, tilga olingan, tahlil etilgan.

O'rtacho'l o'simliklari efemerlar va efemeroidlar o'zlarining vegetatsiya (o'sish) davrini erta bahorda boshlab, to'liq rivojlanish siklini aprel-may oylarida tugatadi. Bu turga mansub o'simliklar qo'ylar uchun bahor mavsumida turli vitaminlar va oqsillarga (karotin ko'rinishida) boy ko'k ozuqa, yoz oylarida esa quruq ozuqa sifatida ahamiyatli.

O'tchil o'simliklar bular ildiz tizimi yaxshi rivojlangan o'simliklar bo'lib, yerning chuqurroq qatlamlaridagi suvlardan foydalanishga moslashgan. Ular qo'ylar uchun qimmatli va to'yimli ozuqa hisoblanadi.

Buta va yarim buta o'simliklar ildiz tizimi kuchli, barglari esa kuchsiz rivojlangan o'simliklar bo'lib, tuproqning chuqur qatlamlaridagi suvlardan foydalanishga moslashgan (saksovul, juzg'un, shuvoq va boshqalar). Sho'radosh o'simliklar ildiz tizimi kuchsiz, barglari esa kuchli rivojlangan, tarkibida ko'p miqdorda tuz saqlovchi o'simliklar hisoblanadi.

O'rtacho'l yaylovlarida efemerli-butali hamda juzg'un-saksovul assotsiatsiyasi guruxli o'simliklar o'sib yaxshi rivojlanadi va ulardan chorva mollarini boqishda keng ko'lamda foydalanish mumkin. Yuqorida qayd qilingan ozuqabop o'simliklardan samarali foydalanish va ularni ko'paytirish hamda muhofaza qilish

viloyatda mavjud bo'lgan yaylovlar mahsuldorligini oshirishga imkon beradi va bu esa qarako'chilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'llaridan biri hisoblanadi.

#### 1-rasm



O'rtacho'l. Xuroson mavzesi. 1978 yilda ekilgan xasaki tutzorlar

O'rtacho'l yaylovlarida efemerli-butali hamda juzg'un-saksovul assotsiatsiyasi guruxli o'simliklar o'sib yaxshi rivojlanadi va ulardan chorva mollarini boqishda keng ko'lamda foydalanish mumkin. Yuqorida qayd qilingan ozuqabop o'simliklardan samarali foydalanish va ularni ko'paytirish hamda muhofaza qilish viloyatda mavjud bo'lgan yaylovlar mahsuldorligini oshirishga imkon beradi va bu esa qarako'chilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'llaridan biri hisoblanadi.

O'tmishda O'rtacho'l Buxoro amirligiga qarashli yaylov bo'lib, unda amirlikning 170-180 ming bosh qo'y-qo'zilar boqilgan. O'rtacho'l yaylovlarida har bir quduq atroflarida cho'ponlar, pastgina qora uylar, chaylalar, kapalar, erto'lalar qurib, qo'y va echqilarni boqqanlar. O'rtacho'l da 60 ta quduq bo'lib, ular odamlar va chorva mollari uchun suv manbai vazifasini o'taganlar. Quduqlar orasida Koriz, Shoyiqozoq, Quyumlik, Shoydaroz, Yangiquduq, Tandircha, Shoyixatip, Taniqli, Beshtepa, Toshqo'tan, Qirkquduq, Oqqo'ton, Jarqo'ton, Darvoza, Qumqo'ra, Buermana,

Sho'rquduq, Shopo'lot, Sho'rcha, Sultonqo'ra, Shohimardon, Bitkana, To'qitepa, Hofizak, Qorayotoq, To'dako'l, Do'ngakli, Xuroson, Yulduzqoq, Rahimquduq, Egricha, Galaquduq, Choytovoq, O'g'riqoq, Qirqquloch, Iskandar, Tetalon, Yunusquduq, Ochilqora, kabi quduq qushlar mashhur edi.

Ya'ni Zarafshon daryosi so'ng uning Quyimozor tarmog'i orqali, hamda Qashqadaryo (Qarnob) vodiysidan kirib kelgan Suvqaytisoylarining qum - gil , qum - chag'il yotqiziqlari bilan to'lgan. Qum - chag'illi qatlamlarning qalinligi sharqqa ya'ni tog'ga tomon ortib boradi. Tog' etagida esa (O'rtacho'l vohasi) prolyuvial jinslar etakchi. Bular odatda sarg'ish rangli lyossimon hamda mayin shag'alli qatlamlardan iborat. Aksariyat joylarda tuproqlarning ona jinsi gipslashgan qum chag'illi va lyossimon qumloq, qumoqli tarkibga ega. Pastqamliklarda esa tipik sho'rxoklar mavjud.

Quyimozor platosidagi chag'il konlaridan foydalanish natijasida chuqurligi 5-6 metr, diametri 55-60 metr va undan katta bo'lgan xandaklar hosil bo'lgan. Joylarda ularning maydoni 0,5-4,0 gektargacha boradi. Achinarlisi shundaki, hozirgi kunda bu xandaklarga Kogon tumanidan keltirilgan chiqindilar tashlangan. Mazkur maydonlarni "buzilgan yerlar" deb qarash joiz. Ular foydali qazilmalarni qazib olish natijasida tuproq - grunt qoplami va gidrogeologik sharoitning buzilishi va texnogen relyef shakllarining hosil bo'lishi natijasida xo'jalik va estetik ahamiyatini yo'qotgan va tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yerlardir. Suv bo'yi va to'qayzorlar maydonini iloji boricha qisqartirish choralarini ko'rish lozim, chunki bu hududlardan katta miqdordagi chuchuk suv bug'lanadi va transperatsiya qilinadi. Shu sababdan To'dako'l suv omborining foydalilik koeffitsienti juda past.

Quyimozor va To'dako'l mavzesi tabiiy geotizmlarining qashshoqlashuviga sabab bo'lgan inson omili va uning ayrim oqibatlarini haqida fikr yuritiladi.

Qum-shag'al (chag'il) zaxiralarni qazib olish tufayli ham geotizimlarining kambag'allashuvi xuruj qilmoqda. Gipsli cho'llar aksariyat allyuvial negiziga ega bo'lib, undagi qum shag'alli konlar katta ko'lamga va zahiraga ega. Uni

ravshanroq tasavvur qilish uchun Quyimozor suv omborining g'arbiy sohilida qad ko'tarilib turgan erazion oshilma litologik kesmasini keltirildi. Qum-shag'al qatlamlarining qalinligi, sho'rlanganlik darajasi, gipslilik joylarda farqlanadi. Qum-shag'alni qurilish ashyosi sifatida, qasib olish maqsadida Xojkab tepaligi etagida 1966 yildan buyon qum-shag'al zavodi ishlab turibdi. Zavod ixtiyoriga 670 gektarli qum-shag'alli maydon ajratilgan. Qazish ishlari tufayli hozirgi kunda 130 gektar maydonda kon sanoati relyefi hosil bo'lgan. Chuqurligi 3-4 metr keladigan ko'lmakli hovuz-xandaklar, tartibsiz yotgan sho'rlangan tuproq uyumlari oy-relyefini eslatadi. Shunday holni Quyimozor temir yo'l stansiyasi oldida ko'rish mumkin. Buxoro vohasi chegarasida joylashgan bu texnogen landshaft 20 gektardan ortiq maydonni egallaydi. Bunday antropogen relyef shakllarini O'rtacho'lning ko'p joylarda ushratish mumkin. Yilning issiq va quruq davrida bunday maydonlar deflyatsiya o'shog'i bo'libgina qolmasdan, qon so'ruvchi hasharotlarning ko'payish maskani hamdir. Bunday yerlarni agrotexnik va biologik rekultivatsiya qilish kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Бозоров З. Ўртачўл, Қизилтепа, 1998. 64 б.
2. Мамадрасулов С.М. Водная проблема бассейна Зарафшана и пути и решения. Тошкент, Ўзбекистон, 1972. 214 с.
3. Mirzoyeva I.E. To'dako'l suv ombori hududining tabiiy geografik xususiyatlari. Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari. III-xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 2023. B.98-101
4. Назаров.И.Қ, Тошов.Х.Р. Табiiй географик районлаштиришнинг методологик асослари ва амалиёт. Табiiй ва иқтисодий географик районлаштиришнинг долзарб муаммолари. Тошкент, 2004. 15-18 б.
5. Ҳикматов Ф.Ҳ., Сирлибоева З.С., Айтбаев Д.П. Кўллар ва сув омборлар географияси, гидрологик хусусиятлари. –Тошкент: Университет. 2000.- 122 б.